

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish va savodini chiqarishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Denov tumanidagi 6-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Po'latova Dildora Erkinovna

Eshbo'riyeva Xurshida O'rinovna

Tel: 99 707 68 34

Annotatsiya: *Bu maqolada o'quvchilarning darslarda nutqini o'stirish va savodini chiqarishda turli didaktik o'yinlardan foydalanish, metodik tavsiyalar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *didaktik, zamonaviy, chalg'itish, intellektual, texnologiya*

O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol yo'nalishlarini belgilab berdi. Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi.

Prezidentimiz o'z nutqida „Biz farzandlarimizning, nafaqat, jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimga ega bo'lgan insonlar bo'lib, XXI asr talabiga to'la javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun, zarur barcha imkoniyat va sharoitlar yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz!“ degan edilar.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, ularda bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ularda amaliyotda erkin foydalanish, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash didaktik o'yinlardan keng foydalanish an'analari o'qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlantiriladi.

Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab aynan o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim

o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytirishini, nutqini o'stirishini ta'kidlaydi.

O'yin o'qitishning interfaol metodi bo'lib, ta'lim oluvchilarning hayotiy-psixologik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Aziz o'qituvchilar!!! Biz ham darslarimiz davomida o'yinlardan foydalansak, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishgan bo'lamiz. Shunday o'yinlardan biri **"Bo'lishi mumkin emas"** o'yinidir. Bu o'yin ko'proq savod o'rgatish va o'qish darslarida foydalansak, o'quvchilarni og'zaki nutqini o'stirgan bo'lamiz.

Bu o'yinni o'tkazishda o'qituvchi matnni o'qiydi. O'quvchilar bo'lishi mumkin bo'lmagan voqea va hodisalar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim.

Hazil-mutoiba bilan o'tadigan bu o'yin ham o'quvchilardan ziyraklik, sinchikovlik va kuzatuvchanlikni talab qilish bilan birgalikda, ulardan atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq bo'lmaslikni ham talab qiladi. Masalan: Bugun dushanba dam olish kuni bo'lganligi uchun Kamronbek maktabga bormadi. U opasi Diana bilan hayvonot bog'iga bordi. Ular hayvonot bog'ida suvda suzib yurgan she'rni, qafasda sayrayotgan baliqlarni va kattakon vahshiy bulbulni ko'rdilar.

Chalg'ituvchi she'riy o'yinlar. Bu o'yinda she'rda ma'no to'g'ri bo'lsa,, ha, to'g'ri" deb javob beradi, agar ma'no noto'g'ri bo'lsa, yo'q noto'g'ri" deb javob beradi.

"Yaxshi bolami? – Yomon bolami?"

Assalom alaykumdan boshlaydi o'z so'zini,

Ko'pchilikni o'rtasida yaxshi tutar o'zini.

Kattalarni hurmat qilar, doim toza yuradi,

Tortib olib o'yinchog'in, ukasini uradi.

U o'zidan kattalarga joy berishni bilmaydi,

O'jar qaysar erkatoydir, uyda hech ish qilmaydi.

Daraxtlarni sindiradi, qo'shnilar undan bezor,

Mushugining bolasini qiynaydi berib ozor.

Hovlilarni supuradi, onasiga yordamchi,

Sira-sira rost gapirmas o'ta ketgan yolg'onchi.

Ovqatlanish oldidan u yuvadi qo'llarin,

Kesib o'tmas kattalarning hech qachon yo'llarin.

O'rtog'ini gapini, ey jim tur" deb biladi,

Qizlar yiqilib tushsa, u xoxolab kuladi.

Xulosa qilib aytish lozimki, ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lami kengaymoqda, sifat jihatidan yangilanmoqda. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan insonlardan ijodiy izlanishni, ishga yangicha yondashishni, ma'suliyatli kasbining haqiqiy ustasi bo'lishni talab etadi.